



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruza Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
Alimardanova Sitora Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoziyevich	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati	133
Aminov Botir Umidovich	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish	138
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati	142
Egamqulova Iroda Safar qizi	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarining ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
Gimayeva Liliya Maskurovna	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li	
Rusiya o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni	163
Salisheva Zilola Ismoilovna	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari	174
Vasilyeva Elmira Raisovna	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
Yusupova Liliya Fanovna	
Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<i>Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</i>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<i>Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</i>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish	198
<i>Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</i>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi	202
<i>Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	206
<i>Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</i>	

ABDULLA AVLONIYNING O'ZBEK TAMADDUNIDAGI O'RNI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Tasbolatova Yeliza Yesey qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Filologiya fakulteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning hayoti va ijodiy faoliyati, jadidchilik harakatidagi o'rni hamda pedagogik va adabiy merosi yoritilgan. Shuningdek, adibning "Olam ichra ko'rmadim" she'ri g'oyaviy-badiiy jihatdan qisqacha tahlil qilinib, unda ilgari surilgan ma'rifiy va axloqiy qarashlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Abdulla Avloniy, "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", aruz, barmoq.

Abstract: This article examines the life and creative activity of the prominent Jadid educator Abdulla Avloniy, his contribution to the Jadid movement, and his pedagogical and literary heritage. It also provides a brief ideological and literary analysis of his poem "Olam ichra ko'rmadim", highlighting its educational and moral ideas.

Key words: Jadid movement, Abdulla Avloniy, "The First Teacher", "The Second Teacher", "Turkic Gulistan, or Ethics", "School Gulistan", "Literature, or National Poems", aruz, syllabic verse.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и творческая деятельность выдающегося джадидского просветителя Абдуллы Авлони, его вклад в джадидское движение, а также его педагогическое и литературное наследие. Кроме того, представлен краткий идейно-художественный анализ стихотворения "Олам ичра кўрмадим", раскрываются его просветительские и нравственные идеи.

Ключевые слова: джадидизм, Абдулла Авлони, "Первый учитель", "Второй учитель", "Тюркский Гулистан, или Нравственность", "Школьный Гулистан", "Литература, или Национальные стихи", аруз, силлабическая система стихосложения.

KIRISH

*Har g'amning poyoni bordir, har alamning oxiri,
Har zimistonning bahori, har xazonning oxiri.*

Abdulla Avloniy

Ijodkorning adabiyot sohasiga kirib kelishi har xil kechadi. Lekin ayrim iste'dod sohiblariga nisbatan "kirib kelish" degan ibora unchalik to'g'ri emasdek tuyuladi. Chunki ular kutilmaganda yarq etib paydo bo'ladilar-u, kechagina junjikib turgan yuraklarga hamal quyoshiday yoqimli ilqlik baxsh etadilar. Inson qalbini amalga kirgan daraxtlarday uyg'otadilar, ko'ngil novdalariga ezgulik mujdalarini ila boshlaydilar.

Shunday sevimli ijodkorlardan biri, mashhur o'zbek ma'rifatparvari, milliy Uyg'onish davri o'zbek adabiyotining taniqli vakili, shoir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga kelgan. Shoirning otasi Miravlon aka, onasi Fotima opa farzandining shunday yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida katta hissa qo'shganlar.

Abdulla Avloniy yetti yoshida O'qchi mahallasidagi eski maktabga borib, Akromxon domladan savod chiqardi. Uni 1890-yilda tugatgach, shu mahalladagi madrasada tahsil oladi. Ilmga bo'lgan mehri tufayli keyinchalik Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxun qo'lida tahsil oladi. Ammo tirikchilikning og'irlashuvi ta'limni davom ettirishga imkon bermaydi. Bu haqda u shunday yozadi: "1891-yildan boshlab faqat qish kunlarida o'qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim." Ko'p o'tmay bu ham barham topadi. U butunlay mehnat faoliyatiga sho'ng'ib ketadi, g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik va binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla Avloniyda she'riyatga oshuftalik bolalik chog'laridanoq shakllangan bo'lsa-da, ilk she'riy mashqlarini 15–16 yoshlarida yoza boshlaydi. Uning ilk she'ri 1894-yilda bitilgan. 1905-yildan boshlab esa o'z she'rlari bilan matbuotda muntazam qatnasha boshlagan.

Yosh Abdulla Alisher Navoiy she'riyatiga, Fuzuliy g'azallariga mehr qo'ygan. So'ngra zo'r ishtiyoq bilan fors tilini o'rganadi. Sa'diy va Hofizning sehrli olamidanoq zavq-shavq oladi. Nihoyat, bular o'z samarasini berib, shoirning o'zi kamtarona qayd etganidek, "she'r yozishga tutindi." Afsuski, shoirning yoshlik davrida yozgan she'rlari bizgacha saqlanib qolmagan. Faqat 1905-yildan boshlab yaratilgan asarlarigina bizgacha yetib kelgan.

1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabini ochadi. Toshkent Davlat universitetida (hozirgi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti) uzoq yillar dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy mazkur maktab haqida o'z xotiralarida shunday yozgan edi:

"Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temiryo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktabning fazilatlarini haqida shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: "Miroboddagi maktab olti oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish, jug'rofiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilarmish", degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga hammamiz oshiqardik. Nihoyat, bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastakkina, nim qorong'i bo'lib, masjid yo'lagida joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va o'qimoq uchun kelganlar soni ko'p edi. Xayolimizda domlarning allaqanday bir sirli tomoni bor edi.

Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho'qqisoqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo'lishlari, juda ko'p she'r va hikoyalarni yod bilishlari bilan hammamizni lol qoldirdi."

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ayni zamonda bizning eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi.

Shuning uchun ham adibning 1909-1917-yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun yozilgan o'ndan ortiq kitobi maydonga keldi. Uning "Birinchii muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" singari darsliklari hamda "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami inqilobga qadar bir necha bor qayta nashr etilib, Turkistonning ko'plab yangi usul maktablari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

"Muallim afandilar va adabiyot muhoblari banim bu asari nochiz onalarimni iltifotsiz qoldurmadilar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalina kiritub, maydoni ta'lima qo'ydilar", - deb yozgan edi Avloniy mamnuniyat bilan.

She'riyat bir bahri mavj bo'lsa, Abdulla Avloniy uning mohir g'avvozidir. "1894-yildan boshlab she'r yozishga tutungan" bo'lsa-da, u she'rlar bizgacha yetib kelmagan. Uning Oktabr inqilobigacha bo'lgan poetik merosi, asosan, "Adabiyot" nomli olti qismdan iborat she'riy to'plamlarida jamlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, ming yillik mumtoz she'riyatimiz barmoq va aruz vaznlarida yozilgan. Aruz vazni XX asr boshidagi she'riyatda asosiy vazn edi. Lekin Navoiygacha bo'lgan va undan keyin yaratilgan xalq og'zaki ijodi barmoq vaznida bo'lgan. Mumtoz adabiyotimizda barmoq vaznida yozilgan she'r deyarli uchramaydi. Biroq aruz o'sha davrning g'alvakor ovozi bor ro'y-rosti bilan olamga yoyish kuchiga yetarli emas edi. Shuning uchun ham Avloniy muhim ijtimoiy masalalardan bahs ochuvchi ko'pgina she'rlarini barmoq vaznida yozdi. U barmoq vaznini xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o'tdi.

*Yo'lga soldi til ila yo'ldoshin,
Maktabga moyil ayladi boshin.
Soldi o'rtog'ining so'zina quloq,
Bosdi ul ham o'quv yo'lina oyog'.
Ikkisi birga bo'ldilar mullo,
Chiqdi xat-u savod ham imlo.*

Klassik adabiyotimizda ming yillardan beri ishlanib kelgan gul, bulbul, yor, ag'yor, may, charx (dunyo) kabi obrazlar bu davr adabiyotida, jumladan, Avloniy ijodida boshqacha ohang va boshqacha mazmun kasb etdi:



*Bahor o'lsa, shabi hijron hamisha zor o'lur bulbul,
Gulining ishqida faryodi xushguftor o'lur bulbul.*

(*"Hijroni bulbul"*)

Bu yerdagi bulbul oshuqaning ishqida faryod urib, muhabbat mulkida sulton bo'lgan oshiq emas. Bu she'r "asrlarni yig'latgan sevgi" haqida ham emas. U mustamlaka zulmining "achchiq" qamchisini yegan, xalq dardida yashagan bulbullar va o'sha davrda jahannam maydoniga aylangan Turkiston haqida bitilgandir.

Abdulla Avloniyning "Olam ichra ko'rmadim..." deb nomlangan she'rida bu foniylamning azob-uqubatlari va adolatsizliklaridan larzaga tushayotgan lirik qahramon iztiroblari ifodalanadi.

*Olam ichra ko'rmadim kizb-u xiyonatdan bo'lak,
Mehr-u shafqat o'rnig'a shaxsiy adovatdan bo'lak.
Hamshikamlar, hamnafaslardan farog'at ko'rmadim,
Oh, ko'nglum pora-pora, dil jarohatdan bo'lak.
Oshino yor-u birodardan muqarrar chektim al,
Hech bir shay ko'rmadim g'iybat, haqoratdan bo'lak.
Demak istarman xuruji Mahdii Iso qarib,
Uchramas bir shay ko'za ayshu sharoratdan bo'lak.
Shayxlar sayyod o'lub, saydi murid o'ldi, darig',
Zuhd-u taqvoni na qilsunlar sayohatdan bo'lak.*

Ushbu ijod namunasi g'azal janri singari qofiyalanish ko'rinishiga ega (a-a, b-a, d-a...). Dastlabki baytda tazod san'atidan mohirona foydalanilgan (mehr-u shafqat - adovat, kizb-u xiyonat). Bu olamda lirik qahramon yolg'on (kizb)-u xiyonatdan, mehr-u shafqat o'rnida esa shaxsiy adovatdan bo'lak hech narsa ko'rmaganligi ifodalanadi.

Keyingi baytda tanosub (ko'ngul, dil), ta'did (hamshikamlar, hamnafaslar) va tazod (farog'at - jarohat) san'atlarini ko'rish mumkin. Asar tazod san'ati asosida qurilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. G'oyaviy davomiylik ikkinchi baytda ham davom etadi: lirik qahramon hamnafaslaridan farog'at topmaydi, ko'ngli pora-pora, dili esa jarohatdan o'zgasini topmaydi.

Uchinchi baytda shoir ta'did (oshino, yor, birodar) hamda tanosub (al, g'iybat, haqorat) san'atlaridan foydalanadi. Yor-u oshinolaridan doimo xavf (al) chekkanini, g'iybat va haqoratdan bo'lak hech bir narsa (shay) ko'rmaganini ta'kidlaydi.

To'rtinchi bayt talmeh (Mahdii Iso) san'ati asosida qurilgan. Lirik qahramon Alloh yo'lga boshlovchi Isoning kelishini orzu qiladi, ammo aysh-u ishrat va sharoratdan boshqa hech narsaga duch kelmaydi.

Beshinchi baytda shayxlar bamisoli ovchi (sayyod) bo'lib, ularning o'ljasi o'z muridlari ekani afsus (darig') bilan ifodalanadi. Ularning zuhd-u taqvoni chetga surib, faqat sayohat bilan mashg'ul bo'layotganliklari tanqid qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatparvar shoir ijodini tahlil qilish jarayonida, avvalo, mustamlaka davri pafosi, jonkuyar millat farzandlarining ichki kechinmalari hamda ilm-u ma'rifat fidoyilarining ruhiy olami nihoyatda ta'sirchan tarzda ochib berilganini ko'rish mumkin. Asarlarining tili sodda va ravon. Ushbu soddalik ularning oson o'qilishiga, shu bilan birga, tez yodda qolishiga xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy - o'zbek xalqining fidoyi farzandi. U nafaqat xalq dardiga hamdard bo'lgan, balki xalqini baxt va ozodlik yo'lga boshlashga, muqaddas g'oyalar yo'lida kurashishga da'vat etgan millat fidoyisidir. Chin ma'noda u o'zbek tamadduniga tamal toshini qo'ygan jadid ma'rifatparvarlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Toshkent tongi . T. . 1979. 373-bet
2. Tohiriy Y . Dono murabbiy, "Toshkent oqshomi " g . 1966 -yil 10-noyabr
3. Bir- iki so'z, 4- juz, 1- tab', Orifjonov litogr. , T.,1916, 2- bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.